



UO‘K: 37.01:613.95(575.1)

YANGI O‘ZBEKISTONDA KELEJAK AVLOD TARBIYASIGA GERENTOLOGIK MOXIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH**ДАЛЬНЕЙШЕЕ РАЗВИТИЕ GERENTOLOGICHESKOY SUZHNOYI VOСПИТАНИЯ БУДУЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ****FURTHER DEVELOPMENT OF THE GERENTOLOGICAL ESSENCE OF EDUCATING THE FUTURE GENERATION IN NEW UZBEKISTAN****Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich** 

Farg‘ona davlat universiteti Falsfa va milliy g‘oya kafedrası f.f.b.f.d. (PhD) v.b. dotsenti,

Anotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda keksa avlod vakillarini ijtimoiy himoya qilish, ularga moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatishga qaratilgan davlat siyosati va amaliy chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Maqolada keksalarning jamiyat va yoshlar tarbiyasidagi o‘rni, ularni e‘zozlash milliy g‘oya darajasiga ko‘tarilgani ta‘kidlanadi. Xususan, “Nuroniylar jamg‘armasi faoliyati, davlat tomonidan ajratilayotgan imtiyozlar, dori-darmon va tibbiy xizmatlar bilan ta‘minlash, urush va mehnat faxriylariga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik misollarida keng yoritiladi. Shuningdek, pandemiya davrida ham keksalarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolganı aytib o‘tiladi. Maqolada keltirilgan ma‘lumotlar keksa avlodni himoya qilish borasidagi islohotlar samaradorligini namoyon etadi.

Аннотация

В данной статье анализируются государственная политика и практические меры, направленные на социальную защиту представителей старшего поколения в Узбекистане, оказание им материальной и моральной помощи. В статье подчеркивается роль пожилых людей в обществе и воспитании молодежи, а также то, что уважение к ним поднялось до уровня национальной идеи. В частности, деятельность фонда "Нуроний", льготы, предоставляемые государством, обеспечение лекарствами и медицинскими услугами, забота, оказываемая ветеранам войны и труда. Также отмечается, что поддержка пожилых людей оставалась приоритетом государственной политики даже во время пандемии. Информация, представленная в статье, демонстрирует эффективность реформ по защите старшего поколения.

Abstract

This article analyzes state policy and practical measures aimed at social protection of representatives of the older generation in Uzbekistan, providing them with material and moral support. The article emphasizes the role of the elderly in society and the upbringing of youth, and the elevation of respect for them to the level of a national idea. In particular, the activities of the "Nuroniylar" Foundation, state-allocated benefits, provision of medicines and medical services, and care for war and labor veterans are widely covered. It is also noted that supporting the elderly remained a priority of state policy even during the pandemic. The information presented in the article demonstrates the effectiveness of reforms to protect the older generation.

Kalit so‘zi: Keksalar avlod, ijtimoiy himoya, Nuroniylar jamg‘armasi, faxriylar, ma‘naviy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, milliy g‘oya, moddiy yordam, tibbiy xizmat, pandemiya davrida qo‘llab-quvvatlash, davlat siyosati, urush faxriylari, ijtimoiy adolat, sanatoriy-sog‘lomlashtirish, ma‘naviy yordam.

Ключевое слово: Пожилое поколение, социальная защита, Фонд "Нуроний", ветераны, духовные ценности, воспитание молодежи, национальная идея, материальная помощь, медицинское обслуживание, поддержка во время пандемии, государственная политика, ветераны войны, социальная справедливость, санаторно-оздоровительные учреждения, духовная помощь.

Key words: Elder generation, social protection, Nuroniylar Foundation, veterans, spiritual values, youth education, national idea, material assistance, medical services, pandemic support, state policy, war veterans, social justice, sanatorium-health, spiritual assistance.

KIRISH

Keksalar avlod jamiyatning ilg‘or hayotiy qatlami sifatida qimmatli boyligimizdir. Ularnı yanada ko‘proq asrab-avaylash ham farz ham qarz. Bu jihatdan adabiyot va rivoyatlarda keksalarimizning oila, jamiyatdagi ahamiyati haqida ko‘p yozilgan. Shu boisdan mamlakatimizning yangi rivojlanish davrida keksalar avlod vakillarini ijtimoiy himoyalashning zamonaviy usullarini qo‘llashga e‘tibor kuchaytirildi. Keksalar ijtimoiy himoyasi bo‘yicha takliflar kiritish, har bir mahallada yashayotgan

keksalar holidan xabar olish mexanizmini takomillashtirish maqsadida 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab «Nuroni» jamg'armasining har bir tuman (shahar) bo'limida bir nafardan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlarida uch nafardan, markaziy apparatda 8 nafar xodim hisobidan "Nuroni" jamg'armasi shtat birliklari ta'minotini byudjetdan moliyalashtirish mexanizmi joriy etildi". Bu esa mamlakatimizda keksalarga e'tibor berishga doir islohotlarning amaliy ijrochilari ham o'z vaqtida qo'llab-quvvatlanishini ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mustaqilligimiz tufayli keksa avlod vakillari o'z ichki va tashqi ma'naviyati, hayot tajribasi bilan yoshlar tarbiyasiga mas'ulligi mafkuramizning talabi bo'ldi. "Keksa avlodlarga to'g'anoq emas – suyanchiq, raqib emas – ustoz, befarq emas – hamdard bo'lish milliy g'oyamizda o'z ifodasini topgan". Demokratik islohotlar mobaynida keksa avlod vakillarini ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlardan biri mustaqillik bayrami tantanalari arafasida mamlakatda 100 yoshdan oshgan nuroniylarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan yuksak davlat mukofotlarini topshirish an'anasi hisoblanadi. Mamlakatda 2002-yil "Qariyalarni qadrlash yili" va 2015-yil esa "Keksalarni e'zozlash yili" deb nomlanishi keksa avlod vakillarini ijtimoiy himoyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlardan dalolat beradi. Shuningdek, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Farmoniga muvofiq, "Ikkinchi jahon urushidagi G'alabaning 70-yilligi" esdalik yubiley medali va pul mukofoti bilan taqdirlandi. Ushbu jarayonni yanada takomillashtirish maqsadida "keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, yoshi ulug' insonlar, ayniqsa, 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylariga ijtimoiy yordam, pensiya ta'minoti va tibbiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, oila va jamiyatda, yoshlarni o'zbek xalqining ko'p asrlik qadriyat va an'analari ruhida tarbiyalashda keksalarning o'rnini mustahkamlash maqsadga muvofiq". O'zbekistonda keksalarning turmush tarzi, ularning ijtimoiy ehtiyojlari, manfaatlari, qarashlari, maqsadlariga e'tibor masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlarida aks ettirilgan. Shu asnodda 2015-yil 18-fevralda "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi tasdiqlangan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-avgustdagi "Keksalar va nogironlarni qo'llab-quvvatlash va manzilli ijtimoiy himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish to'g'risida"gi qarori va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda keksa avlod faoliyatiga e'tibor ijtimoiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi belgilangan va nuroniylarni jamiyat ma'naviy hayoti, yosh avlodning axloqiy madaniyati yuksalishida ahamiyati ko'rsatilgan.

Mamlakat rahbari nuroniylarning ijtimoiy himoyasini islohotlar ko'lamidagi muhim vazifalar qatoriga qo'yadi. "Faxriylar va yoshi ulug' insonlarga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatish darajasi va sifatini oshirish, ularni tizimli asosda sog'lomlashtirishni tashkil etish, profilaktika tadbirlarini ko'paytirish, ko'rish va eshitish organlari, tayanch-harakat tizimi va yurak-qon tomir kasalliklarini davolashning zamonaviy usullari bilan qamrab olish va ulardan foydalanishni kengaytirish, keksalar va nogironlarni yordamchi hamda texnik reabilitatsiya vositalari bilan, jumladan, imtiyozli asosda ta'minlash, keksalarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan sanatoriy-sog'lomlashtirish va ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash zarur" ligi bir necha bor ta'kidlanishi bejiz emas. Ya'ni, keksalarni qo'llab-quvvatlash, avvalo, tibbiy-ijtimoiy masalada ustuvorlik kasb etadi. Keksa avlodning salomatligi, umrzoqligini ta'minlash yo'lidagi barcha sa'y-harakatlar jamiyatga kerakli bo'lgan qatlam vakillariga g'amxo'rlik va e'tiborni ko'rsatadi.

XULOSA

"Keksa avlod vakillarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida «Dori-darmon» aktsiyadorlik jamiyati homiylik mablag'lari hisobiga 8000 nafar yolg'iz pensionerlar, 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti qatnashchilari 20 turdagi og'riqsizlantiruvchi vositalar, gipotenziv preparatlar, maxsus dori-darmon yig'malari (aptechkalar) bilan bepul ta'minlandi. Ushbu toifadagi shaxslarning ayrim guruhlari ambulatoriya sharoitida davolanish uchun dori vositalari bilan imtiyozli (bepul) ta'minlash tartibini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda Sog'liqni saqlash va Moliya vazirliklarining 2015-yil 28-apreldagi 26/34-sonli qarori bilan ambulatoriyada davolanishni imtiyozli ta'minlash uchun mo'ljallangan dori vositalarining ro'yxatiga qo'shimcha 8 turdagi dori vositalari kiritilib va tegishli qaror 2015-yil 30-aprelda Adliya vazirligidan 2522-1 raqam bilan ruyxatdan o'tkazildi". Ijtimoiy himoyaga muhtoj qariyalar orasida yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida muruvvat yordami orqali qabul qilingan "107,8 ming AQSh dollariga teng bo'lgan 15 ming doza grippga qarshi va 1,5 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan 677 ming doza gepatit (V)ga

ILMIY AXBOROT

qarshi vaktsinalar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar Davlat sanitariya-epidemiologiya markazlariga tarqatildi. Tadbirlar davomida qariyalarni emlash jarayoni 100% qamrab olingan". Keksa avlodni qo'llab-quvvatlashga doir ezgu ishlar shu ko'rinishda ham izchil davom ettirilmoqda. Shuningdek, jamiyatdagi murakkab holatlarda aholini, jumladan, keksa avlodni qo'llab-quvvatlash ishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi «Koronavirus pandemiyasi davrida ijtimoiy himoya va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi Farmoni asosida alohida bosqichga ko'tarildi. Bunday epidemiologik vaziyatlarda ijtimoiy himoyani kuchaytirish jarayoni jadal tus oladi va aholining eng oldingi saflarida yoshi kattalarning tibbiy-profilaktik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi davlatimiz diqqat markaziga olinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/keksa_avlod_vakillarini_qullab-quvvatlash_choralari_kurilmoqda.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг 9 май Хотира ва қадрлаш кунига бағишланган қабул маросимидаги нутқи. Буюк аجدодларимизнинг муқаддас хотираси ва жасорати олдида бош эгамиз // <http://uza.uz>.
3. Ўзбекистон Республикаси вазирлар маҳкамасининг «Кекса авлод вакилларининг жамиятдаги ўрни ва ижтимоий фаоллигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 27.09.2019 й. № 816-сонли Қарори //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2019 йил 28 сентябрь.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Кекса авлод вакилларининг жамиятдаги ўрни ва ижтимоий фаоллигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 27.09.2019 й. № 816 сонли қарори //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2019 йил 28 сентябрь.
5. Древние авторы о Средней Азии. – Ташкент. Госиздат УзССР. 1940. – С. 48.